«Yosh musavvirlar»

— maktab koʻrgazmasi ochilishi ssenariysi

Tasviriy sanʻat — kecha, koʻrgazma va ijodiy bellashuv

1–7-sinf oʻquvchilari, ota-onalar va mehmonlar uchun

Davomiyligi: 40 daqiqa atrofida

Bu ssenariy maktab rasm koʻrgazmasi ochilishi boʻlib, 40 daqiqa atrofida davom etadi. Qogʻoz qalam va boʻyoqlar bahsi sahna koʻrinishi, koʻrgazma boʻlimlari boʻylab ekskursiya va ijodiy tabrik bor.

Agar ssenariy foydali boʻlsa, uni hamkasblaringiz bilan oʻqituvchilar guruhlarida ham ulashing. Bayram va tadbirlar uchun yana koʻplab ssenariylarni baxtiyor.uz saytidan topishingiz mumkin.

Shu toʻplam sahifasi: https://baxtiyor.uz/tasviriy-sanat-ssenariy/

«Senariylar toʻplami» boʻlimi: https://baxtiyor.uz/oqituvchilar-uchun-hamma-narsa/senariylar-to-plami/

«Yosh musavvirlar» — maktab koʻrgazmasi ochilishi ssenariysi

MAQSAD

1–7-sinf oʻquvchilarining rasm va hunar ishlaridan iborat maktab koʻrgazmasini tantanali ochish; yosh ijodkorlarni qoʻllab-quvvatlash.

ISHTIROKCHILAR

Oʻqituvchi (boshlovchi), «Qalam» va «Moʻyqalam» qahramonlari (oʻquvchilar), koʻrgazma yoʻlboshchilari, sheʻr oʻqiydigan oʻquvchilar, mehmonlar.

JIHOZLAR

Koʻrgazma lentalari, qogʻoz qalam va boʻyoq maketlari, stendlarga ilingan oʻquvchi rasmlari (har birining tagida ismi va sinfi), mehmonlar uchun fikr daftari.

TADBIR REJASI

Ochilish — 5 daqiqa. Sheʻr — 4 daqiqa. «Qalam va Moʻyqalam» sahna koʻrinishi — 10 daqiqa. Sheʻr va koʻrgazma boʻlimlari tanishtiruvi — 12 daqiqa. Nominatsiya eʻlonlari — 5 daqiqa. Yakun — 4 daqiqa. Jami: 40 daqiqa atrofida.

OʻQITUVCHI UCHUN ESLATMA

Koʻrgazmadagi har bir rasm ostiga muallif ismi, sinfi va rasm nomini aniq yozib qoʻying — ota-onalar va oʻquvchilar uchun bu katta ragʻbatdir.

TADBIRNING BORISHI

(Maktab foyesi yoki zal. Rasmlar stendlarga joylashtirilgan.)

Oʻqituvchi: Assalomu alaykum, aziz ota-onalar, ustozlar va yosh musavvirlar! Bugun maktabimizning «Yosh musavvirlar» koʻrgazmasini ochamiz!

1-oʻquvchi (sheʻr):

Artishdi akam, opam,
Oyna ketdi yaltirab.
Axir yordamchi men ham
Bekor turmadim qarab.

Barmogʻimni koʻk, qizil
Boʻyoqlarga botirib,
Artilgan derazaga
Rasm chizdim qotirib.

(Fayzi Shohismoil, «Yordamchi» she‘ridan)

1-LAVHA. «QALAM VA MO‘YQALAM» SAHNA KO‘RINISHI

(Sahnaga qo‘lida qog‘oz tutgan Qalam va rangli lenta tutgan Mo‘yqalam chiqadi.)

Qalam: Hoy, Mo‘yqalam! Birinchi o‘rin meniki — mensiz hech kim rasmning shaklini ham, chegarasini ham chizolmaydi!

Mo‘yqalam: To‘g‘ri, Qalam aka, shakl sizdan! Lekin bo‘yoq bermasam, quyosh sariq, osmon moviy, lola qizil ekanini kim biladi?

O‘qituvchi: Bahslashmanglar! Haqiqiy san‘atda chiziq ham, rang ham bir-birini to‘ldiradi. Qarang, bolalarimizning rasmlarida qalam aniqligi ham, bo‘yoq jilosi ham mujassam!

2-LAVHA. KO‘RGAZMA BO‘LIMLARI BO‘YLAB SAYOHAT

(Yo‘lboshchi o‘quvchilar uchta stendni tanishtiradi:)

— 1-bo‘lim: «Ona tabiat va fasllar» (boshlang‘ich sinflar ishlari).

— 2-bo‘lim: «Sevimli ertak qahramonlari» (guash va akvarel rasmlar).

— 3-bo‘lim: «Kelajak shahri va milliy naqshlar» (5–7-sinflar grafika va rangtasviri).

2-o‘quvchi (she‘r):

Olam bag‘rin belab oppoq bo‘yoqqa,
Bir kechada yog‘ib chiqdi oppoq qor.
Poklik kezar, ko‘z tashlamang qayoqqa,
Zamin oppoq, osmon tiniq, beg‘ubor.

(Zikrilla Ne‘mat, «Qor» she‘ridan)

YAKUN

O‘qituvchi: Hafta davomida ko‘rgazma barchaga ochiq. Mehmonlar fikr daftariga o‘z tilaklarini yozib qoldirishlari mumkin. Marhamat, tomosha qiling!

KO‘RGAZMADAN KEYIN

Ota-onalar va ustozlar yozgan iliq fikrlarni sinf soatida bolalarga o‘qib bering.